

MA'NAVIY ZARAR MIQDORINI ANIQLASHDA AYB KATEGORIYASINING AHAMIYATI

Xursanov Arabjon Muzaffar o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti talabasi

arabjonxursanov570@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola hozirgi inson huquqlarini mustahkamlash va fuqarolik jamiyatini mustahkam o'rnatish yo'lida qilinayotgan harakatlar paytida, fuqarolarning harqanday buzilajak huquqlarini tiklash uchun muhim mavzuda yozilgan bo'lib, ya'ni shaxslar bir-birlariga yetkazishlari mumkin bo'lgan ma'naviy zarar nimaligi, uning asoslari va albatta uning miqdorining aniqlashdagi ayb kategoriyasining ahamiyatlari yoritishga harakat qilingan. Bundan tashqari ma'naviy zararning ushbu qismini yoritish uchun, birnechta chet el olimlarning fikrlari va tajribalar ham o'rganilib O'zbekiston qonunchiligiga solishtirmalar ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy zarar, ayb kategoriyasi, zarar.

THE IMPORTANCE OF THE CATEGORY OF FAULT IN DETERMINING THE AMOUNT OF MORAL DAMAGE

Khursanov Arabjon Muzaffar o'g'li

Tashkent State University of Law

Student of private law faculty

arabjonxursanov570@gmail.com

Annotation. This article is written on an important topic to restore any inviolable rights of citizens during the current efforts to strengthen human rights and establish a solid civil society, that is, what is the moral damage that individuals can inflict on each other. , its foundations and, of course, the importance of the category of guilt in determining its amount have been tried to be clarified. In addition, in order to shed light on this part of moral damage, the opinions and experiences of several foreign scientists have been studied and comparisons with the legislation of Uzbekistan have been made.

Key words: moral damage, guilt category, damage.

KIRISH

Ushbu nozik masalani yoritishdan avval umumiyoq tazrda mavzuning asosi bo'lgan ma'naviy zarar tushunchasining o'ziga ta'rif berib o'tish to'g'ri bo'ladi deb o'ylayman. Yuqorida nozik mavzu deb boshlaganimizning boisini aytadigan bo'lsak, insonlar o'zlariga nisbatan sodir etilgan ma'lum harakatlardan zarar ko'rishlari mumkin, misol uchun jismoniy jarohat. Bu albatta tushunarliroq tushuncha deya olamiz, ya'ni jismoniy jarohat yetkazilgan va buni tekshirish, ekpertlar xulosalari yordamida aniq darajasini (yengil, o'rta va og'ir tan jarohati) bilish mumkin. Ammo ma'naviy zarar bu insonning aynan harbir insonning ichki kechinmalaridan kelib chiqadigan va bu zararning ko'lami uning o'zigagina ma'lum bo'ladigan jarayon deyishimiz mumkin. Shuning uchun ham bu masalaga "nozik" ta'rifini qo'lladik deb izoh beramiz.

Ma'naviy zararning e'tirof etilishni qonunchiligidagi qoidalarga ko'ra ham tahlil qilib o'tishimiz mumkin bo'ladi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Ma'naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 2-bandida ma'naviy zararga shunday ta'rif berib o'tilgan, ya'ni, "ma'naviy zarar deganda jabrlanuvchiga qarshi sodir etilgan huquqbuzarlik harakati (harakatsizlik) oqibatida u boshidan kechirgan (o'tkazgan) ma'naviy va jismoniy (kamsitish, jismoniy og'riq, zarar ko'rish, noqulaylik va boshqa) azoblar tushuniladi". Bundan shuni tushunish mumkinki, ma'naviy zarar ko'rgan shaxs o'ziga nisbatan uni kamsituvchi, jismoniy azob beruvchi yoki boshqacha tarzda zarar yetkazuvchi harakatlar amalga oshirilgan shaxs bo'ladi. Misol keltiradigan bo'lsak, ikki talaba ma'ruza darsida tortishib qoldilar va talabalardan biri ikkinchisiga uni haqoratlovchi so'zlar aytib, uning oilaviy ahvolini ota-onasi ajrashganlarini hammaning oldida uning yuziga aytib uni kamsitib haqorat qildi. Bunda haqoratlarni qabul qilgan talaba jismoniy taraflama hechqanday jarohat, ziyon ko'rmadi, ammo bu so'zlar uning psixologik, ruhiy holatiga kuchli ta'sir ko'rsatdi, chunki uning hammaning oldida uni haqoratlagani

va oilaviy holati haqida o'zi hohlamagan ma'lumotlarni bunday tarzda oshkor qilinishi unga ma'naviy zarar yetishiga olib keladi. Talaba o'sha jarayonni o'zida turli og'ir ruhiy holatlarni boshidan o'tkazdi, jumladan uyalish, sharmandalik, qo'rquv va xatto ayb ham, chunki ayb hissini sezish, bunda uning oilaviy holatiga xatto o'zini aybi borlik hissini ham keltirib chiqarishi mumkin. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, talabada yuqoridagi turli ruhiy jarayonlarni boshidan kechirish natijasida uning psixologik holatida o'zgarish sodir bo'ladi, anashu o'zgarishni ma'naviy zarar natijasi deyishimiz mumkin.

MUHOKAMA VA TAHLILLAR

Ma'naviy zarar yetkazilgandan so'ng, ma'naviy zarar ko'rgan shaxs ma'naviy zararni qoplash bo'yicha sudga da'vo arizasi orqali murojaat qilganda, sud da'vo talabini birqancha asoslarga ko'ra o'rganib chiqadi. Ya'ni bu asoslar ham qonunchiligidan keltirib o'tilgan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1022-moddasida shunday qoidalar keltirilgan: "ma'naviy zararni qoplash miqdori jabrlanuvchiga yetkazilgan jismoniy va ma'naviy azoblarning xususiyatiga, shuningdek ayb tovon to'lashga asos bo'lgan hollarda zarar yetkazuvchining aybi darajasiga qarab sud tomonidan aniqlanadi". Qoidalarda keltirilganidek, yetkazilgan jismoniy va ma'naviy azoblar, ya'ni shaxsga qay tarzda, qay holatda azob berilganlik xususiyatlari va ayb tovon to'lashga asos bo'lgandagi holatlarda zarar yetkazuvchining aybi darajasiga qarab aniqlanadi. Bizning batafsil yoritishimiz va unga turli jihatdan yondashib, xususiyatlarini o'rganishimiz kerak bo'lgan jihat ayinidan ma'naviy zarar miqdorini aniqlashda zarar yetkazuvchining aybi darajasi bo'lganligi uchun, bu nuqtani chuqurroq tahlil qilishga harakat qilamiz.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1021-moddasiga ko'ra, ma'naviy zarar uni yetkazuvchi shaxsning aybi bo'lgan taqdirdagina, o'sha shaxs tomonidan ya'ni zarar yetkazgan shaxs tomonidan qoplanishi haqida qoida keltirilgan. Ammo istisno tariqasida moddaning ikkinchi qismida zarar yetkazuvchining ayblilik masalasidan qat'iy nazar quyidagi holatlarda ma'naviy

zarar uni yetkazgan shaxs tomonidan qoplanadi deya birnechta shunday holatlar bayon qilingan. Moddaning bиринчи qismidagi qoidani misol bilan izohlab o'tadigan bo'lsak, Ikki shaxs o'zaro, odamlar ko'z o'ngida bo'lмаган joyda janjallahib qoldilar va ulardan biri ikkinchisiga og'ir haqoratomus so'zlar bilan haqarat qildi va uning ba'zi jismoniy nuqsonlari ustidan kului. Bu holatda haqoratlangan shaxs ma'naviy zarar ko'rishi mumkin va zararni undirish vaqtida shaxs zarar yetkazuvchining ayblilik masalasini isbot qilib berishi kerak bo'ladi, chunki bu holat ya'ni shaxsni haqoratlab, mazah qilish naqtijasida ma'naviy zarar yetkazish Fuqarolik kodeksining 1021-moddasining ikkinchi qismidagi zarar yetkazgan shaxsning ayblilik masalasidan qat'iy nazar qoplanishi kerak bo'lган holatlar qatoriga kirmaydi. Shuning uchun ham bunda ma'naniy zarar ko'rgan shaxs ayb masalasini turli vosita yoki guvohlar orqali isbot qilib berishi mumkin bo'ladi. Moddaning ikkinchi qismi, ya'ni zarar yetkazgan shaxsning aybliligidan qat'iy nazar ma'naziy zarar qoplanishi kerak bo'lган holatlardan birini tahlil qilsak, misol uchun zarar or-nomus, qadr-qimmat va ishchanlik obro'-e'tiborini haqoratlovchi ma'lumotlarni tarqatish tufayli yetkazilgan bo'lsa, zarar yetkazgan shaxsning ayblilik masalasidan qat'iy nazar zarar yetkazgan shaxs tomonidan qoplanadi. Chunki zarar ko'rgan shaxs o'zining or-nomusini, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si haqidagi nomaqlar ma'lumotlari tarqalishidan ma'naviy zarar ko'rishi ancha yuqoriqoq. Aslida ham insonni tashvishga solishi mumkin bo'lган uyalish, hijolatchilik, sharmandalik kabi tushunchalar bu, boshqalarning u haqida nima deb o'yplashi, u haqida qanday xulosa qilishlari mumkinligi haqida o'ylab, ulardan qo'rqish hislariga o'xshatish mumkin. Shuning uchun ham bu istisno tarzdagi qoidalardan biri hisoblanadi, ya'ni zararni or-nomus, qadr-qimmat va ishchanlik obro'-e'tiborini haqoratlovchi ma'lumotlarni tarqatish tufayli yetkazish.

Ma'naviy zararda ayb kategoriyasini ahamiyati bo'yicha chet el qonunchiligi va huquqiy ilmiy ishlar bilan ham tanishib chiqdik. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi yurisprudensiya nazariyalariga ko'ra, ular ma'naviy zararni qoplash huquqining

paydo bo'lishi uchun bir vaqtning o'zida quyidagi to'rtta shart mavjud bo'lishi kerak deb hisoblaydilar, ya'ni

fuqaroning ma'naviy zarar ko'rishi, ya'ni jismoniy yoki ma'naviy azoblanishi;

fuqaroning nomulkiy huquqlarini buzuvchi yoki fuqaroga tegishli boshqa nomoddiy manfaatlarga tajovuz qiluvchi huquqbuzarning noqonuniy harakati (harakatsizligi);

g'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) va ma'naviy zarar o'rtasidagi sababiy bog'liqlik;

zarar yetkazuvchining aybi.

Ko'rib turganimizdek ma'naviy zararni undirish huquqi yuzaga kelish asoslardan biri sifatida zarar yetkazuvchining aybi masalasi ham Rossiya yurisprudensiyasida keltirilgan. Shu bilan birga ushbu nazariy asoslar Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 151-moddasining ikkinchi qismida keltirilgan ya'ni, "ma'naviy zararni qoplash miqdorini belgilashda sud **huquqbuzarning aybdorlik darajasini** va boshqa e'tiborga molik holatlarni hisobga oladi. Sud shuningdek, zarar ko'rgan fuqaroning individual xususiyatlari bilan bog'liq jismoniy va ma'naviy azob-uqubatlar darajasini ham hisobga olishi kerak". Bundan tashqari Federatsiya kodeksida ham zarar yetkazgan shaxsning aybidan qat'iy nazar ma'naviy zararni qoplashi kerak bo'lган holatlar keltirilgan va u holatlar biznining kodeksdagi zarar yetkazuvchining aybliligidan qat'iy nazar ma'naviy zararni qoplashi kerakligi haqidagi qoidalar bilan bir-hil deyishimiz mumkin.

Bundan tashqari Yevropaning "Humanities & Social Sciences Reviews" nashrida chop etilgan mualliflar jamoasining "**COMPENSATION OF MORAL DAMAGE IN RUSSIA AND THE ANGLOSAXON LEGAL SYSTEM COUNTRIES**" ya'ni "**ROSSIYA VA ANGLO-SAKSON HUQUQ TIZIMI DAVLATLARIDA MA'NAVIY ZARAR KOMPENSASSIYASI**" nomli maqolasida ham ma'naviy zarar haqida davlatlarning huquq tizimiga solishtirma ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu manbaada shunday fikrlar ilgari surilgan, ya’ni anglo-sakson huquq tizimida ma’naviy zararni undirish huquqi agar shaxsning ehtyorsizligi tufayli zarar yetkazilgan bo’lsa kam hollarda yuzaga kelishi mumkinligi haqida aytilgan. Ammo shaxsning sha’ni, obo’si haqidagi nohaq fikrlar boshqa shaxslarga tarqatish, namoyish qilish orqali ma’naviy zarar yetkazilsa uni undirish huquqi qat’iyan yuzaga kelishligi aytilgan.

Ma’naviy zararni undirishdagi qonunchiligidagi normalarni qo’llanilishi haqidagi sud ishlaridan na’munalarni o’rganadigan bo’lsak, jumladan 2022-yil fuqarolik ishlari bo’yicha Forish tuman sudida 2-1305-2212/1091-sonli fuqarolik ishini ko’rishda, fuqaro A fuqaro Bga nisbatdan dehqon bozori ro’parasida haqoratli so’zlar bilan haqoratlagan va bu holat birnecha marotaba takrorlangan va shundan so’ng, fuqaro B ma’naviy zararni undirishni so’rab sudga murojaat qilgan. Ma’naviy zarar sifatida fuqaro B yetti million so’m so’ragan. Shunda sud ishni o’rganib, **ga’yriqonuniy harakarning xususiyatini, davom etish muddatini, da’vogar va javobgarning shaxsini va javobgarning moddiy ahvolini hisobga olib, ma’naviy zarar miqdorini bir yarim million sifatida baholagan.** Bunda sud Fuqarolik kodeksi va Oliy sud Plenumi qarorida nimalarga e’tibor qaratish kerakligini inobatga olganini ko’rishimiz mumkin.

Bundan tashqari fuqarolik ishlari bo’yicha Mirobod tumanlararo sudida 2022-yil 2-1002-2205/14712-sonli fuqarolik ishi ko’rilgan. Bunda fuqaro ichki ishlar organlari yo’l harakati xavfsizligi xodimlari ustidan yuz million so’m ma’naviy zararni undirish haqidagi da’vo arizasini kiritgan. Vaziyatga ko’ra xodimlar fuqaroni mashinasini besabab to’xtatishgan va hujjatlarini asossiz ravishda so’rab, hujjatlarida kamchilik borligini vaj qilib ma’muriy bayonnomaga asosida uning mashinasini jarima maydoniga olib qo’yishgan. Fuqaroning ma’naviy zarar so’rashiga asosiy sabab shundaki, fuqaroning to’xtatilgan mashinasida uning chet ellik investorlari bo’lgan va ular aynan mashinalari bunday tarzda to’xtatilganligi va xodimlarning qo’pol munosbatlari natijasida fuqaro bilan shartnoma tuzish fikridan

qaytdilar.

Keyinchalik jinoyat sudida ma'muriy huquqbazarlik ishi ko'rulganda unda MJtKning 135-modda 1-qismidagi huquqbazarlik alomatlari yo'qligi sababli ish tugatilgan. Shundan so'ng da'vo qisman qanoatlantirilgan, ya'ni da'vogar so'ragan yuz million so'm emas, uning foydasiga yigirma million so'm miqdorida ma'naviy zarar belgilangan. Bunda sud asos qilgan asosiy norma sifatida Fuqarolik kodeksining 1021-moddasining ikkinchi qismidagi zarar yetkazuvchining aybidan qat'iy nazar qoplanishi kerak bo'lgan asoslardan biri, ya'ni "**qonunga xilof tarzda ma'muriy jazo qo'llanish**" natijasida yetkazilgan zarar qoidasiga tayangan. Ammo ko'rib o'tganimizdek da'vo to'liq emas qisman qanoatlantirilgan.

Yana bir sud ishini ko'rib chiqsak, ammo bu sud ishida ma'naviy zarar undirish haqidagi da'vo qanoatlantirilmagan. Fuqarolik ishlari bo'yicha Urganch tumanlararo sudining 2022-yildagi 2-2201-2205/11311-sonli fuqarolik ishini ko'rish natijasida quyidagilarni aniqlagan va biz hal qiluv qarorining bayon qismini qisqacha ifodalab o'tamiz, ya'ni, fuqaro A va B o'rtasida yuk mashinasini oldisotdisi haqida og'zaki shartnoma tuzilgan va kelishuv bo'lgan vaqtida haridor bo'lgan fuqaro A pulning bir qismini berishi kerak bo'lgan va bergen ham. Ammo uch oy vaqt o'tgach mashinani qaytarib berish istagini fuqaro Bga bildirgan, lekin fuqaro B bunga qarshilik qilgan, sabab haridor sotib olgandan so'ng mashinadan ancha foyda ko'rgan, mashinani ta'miriga yaxshi e'tibor bermaganligi sababli mashinaning holati yomonlashgan degan vajlar keltirgan va shuning uchun fuqaro A dan to'qqiz ming AQSH dollari miqdorida moddiy zarar va o'n million so'm miqdorida ma'naviy zarar so'ragan.

Sud holatga baho berib, fuqarolar shartnomaning notarial tartibda tasdiqlanishi kerakligi haqidagi qoidasida riosa qilinmaganligini, taraflarning o'rtasida kelishuv bo'lmasligi, transport vositasini ijara yoki boshqa tusdagi shartnoma rasmiylashtirilmaganligi sababli mazkur da'vo talabini qanoatlantirishdan rad etishni lozim topadi. Shu bilan birga sud Fuqarolik

protsessual kodeksining 72-moddasidagi har bir taraf o‘zining talablari va e’tirozlariga asos qilib ko‘rsatgan holatlarni isbotlashi shartligi haqidagi qoidani ham keltirib o’tgan. Bundan sud da’vogarning ma’naviy zarar ko’rganligi haqidagi talabini yetarli darajada istotlab bera olmaganligini asoslab o’tgan degan xulosaga kelish mumkin. Ya’ni bu ishda zarar yetkazuvchining aybidan qat’iy nazar qoplanishi kerak bo’lgan holatlar qoidasiga mos keladigan holat bo’lmagan. Da’vogar ma’naviy zararni undrishga asos bo’ladigan asoslardan biri bo’lgan zarar yetkazuvchining aybi haqidagi holatni isbot qilib bera olmagan.

XULOSA

Yuqoridagi normalar tahillarni inobatga olib aytishimiz mukinki, ma’naviy zararning miqdorini aniqlashda ayb kategoryasi o’ziga yarasha o’rin tutadi, zarar yetkazuvchining aybi bo’lgan taqdirda qoplanishi va ayblilik masalasidan qat’iy nazar qoplanishi kerak bo’lgan holatlarni ham keltirib o’tdik. Zarar yetkazuvchining aybi aniqlangandan yoki aybidan qat’iy nazar holatlar ko’rilgandan so’ng, sud uning ayb darajasiga ham e’tibor derib miqdorni aniqlaydi. Zarar yetkazuvchi ishni qasddan amalga oshirganmi yoki extyotsizlikdan amalga oshirgan kabi masalalarga aniqlik kiritishi lozim. Bundan tashqari sud javobgar huquqbuzarlik uchun avvaldan tayorgarlik ko’rganliklarini va huquqbuzarlikni “behayolik”, “shafqatsizlik” kabi emotsional holatlar bilan amalga oshirganligiga baho beradi. Shundan so’ng yuqorudagi asoslar da’vogar talab qilayotgan moddiy qiymatga mutanosib kelish yoki kelmasligi qarab, oqilonalik va adolatlilik mezonlarini inobatga olgan holda miqdor belgilaydi.

Adabiyotlar / References

1. O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi;
2. Fuqarolik huquq darslik. Mualliflar jamoasi 2019-yil
3. Abdixakimov, I. (2022). Cyber Crimes in Digital Economy. Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal, 1(1), 1-5.
4. Fuqarolik huquqi R.Ro'ziyev V. Topildiyev 2011-yil
5. Mekhmonov, K. (2017). THE LEGISLATIVE FRAMEWORK AND THE PRINCIPLES OF CIVIL-LAW REGULATION OF RELATIONS CONNECTED WITH THE COMPUTER PROGRAMS AND DATABASES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Theoretical & Applied Science, (3), 23-28.
6. Fuqarolik huquqi. M.Abdusalomov, X.Azizov, B.Ahmadjonov va boshq.; TDYU. – Toshkent: Adolat, 2007
7. Doniyorbek, I. (2022). MAJBURIYATNI BAJARMAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI QO'LLASH MUAMMOLARI.
8. Abdikhakimov, I. (2023). Legal Aspects of Social Media Marketing Contracts. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 4(1), 125-130.
9. Toshmuxammadov, A., & To'xtayev, O. K. (2022). JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIY VA HUQUQIY ZARURIYATI. Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal, 1(1), 5-16.
10. Mehmonov, Q. A. (2018). Civil legal protection of a database according to the legislation of foreign countries. Review of law sciences, 2(1), 11.
11. O'G'Li, I. D. B. (2022). YURIDIK SHAXSLARNING UMUMIY YIG 'ILISH QARORLARINI HAQIQIY EMAS DEB TOPISHNING HUQUQIY OQIBATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 430-447.
12. Mekhmonov, K. (2020). Issues of legal regulation of relations related to information and communication technologies. *Review of law sciences*, 4(1), 17.

Internet manbalari

1. <https://Lex.uz/>
2. <https://admomsk.ru/>
3. <https://www.garant.ru/>
4. <http://www.consultant.ru/>
5. <https://library-tsul.uz/>